

Abduraxmonova Sohiba Aktam qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, stajyor-o'qituvchi

[*abduraxmonovasohiba@gmail.com*](mailto:abduraxmonovasohiba@gmail.com)

Zaripova Shahzoda Shavkat qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, talaba

[*shahzodazaripova9@gmail.com*](mailto:shahzodazaripova9@gmail.com)

TIL VA MADANIYAT TUSHUNCHALARINING BOG'LIQLIGI

(bir til oilasiga mansub antroponimlar misolida)

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda til va madaniyat tushunchalarining nechog'lik bir-biriga bog'liq hodisalar ekanligi haqida so'z yuritilgan. Bir til oilasiga mansub tillardagi antroponimlarni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: antroponim, argo, jargo, manera, til, madaniyat.

Abstract: This article talks about how the concepts of language and culture are interrelated phenomena. Anthroponyms in languages belonging to the same language family were analyzed.

Key words: anthroponym, argo, jargo, manera, language, culture

Аннотация: В данной статье говорится о том, что понятия языка и культуры являются взаимосвязанными явлениями. Проанализированы антропонимы в языках, принадлежащих к одной языковой семье.

Ключевые слова: антропоним, argo, жарго, манера, язык, культура.

Kirish:“Til – tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuidir”, deydi taniqli tilshunos F.De.Sossyur. Ma'lumki, tilning o'ziga xos xususiyatlari bor, ana shu xususiyatlardan biri o'tkazuvchanlikdir. Til muloqot vositasigina emas, balki avlodlar o'rtasida axborot tashish funksiyasiga ega bo'lgan qimmatli qurol, tirik qurilmadir. Bunda ajdodlar o'z tilini avlodlariga o'tkazar ekan shu orqali o'zining dunyoqarashini, madaniyatini, urf-odatlarini-yu, xarakter-xususiyatlarini ham o'z vorislariga meros qilib qoldiradilar. Tilning o'tkazuvchanlik xususiyati til va madaniyat tushunchalarini birgalikda o'rganganimizda yanada yaqqol ko'zga tashlanadi.

Biz bir xalqning madaniyati, dunyoqarashi, tafakkur tarzining qanday ekanligini bilib olmoqchi bo'lsak, bizga shu tildagi antroponimikani atroflicha o'rganib chiqishning o'zi katta yordam beradi. Bir til oilasiga mansub tillardagi antroponimlar bir-biriga nihoyatda o'xshash bo'lib, ularning kelib chiqishida ham mushtaraklik bor. Masalan, o'zbek millatiga mansub insonlar farzandlariga totemistik va animistik e'tiqodlar asosidagi Bo'riboy, Bo'ritosh, Bo'riniso, Boybo'ri, Itolmas kabi ismlarni qo'yadilar. Xuddi shunday o'zakka ega bo'lgan nomlar qozoq millati vakillarida ham bor ekanligi e'tiborga loyiqdir: masalan, Бүрихан. Qozoqlar o'g'il farzandlariga bundan tashqari Аюхан, Арыстан, Жолбарыс, Кабанбай kabi ismlarini ham qo'yadilarki bunda ham turkiy xalqlarning o'ziga xos qarashlari o'zining yorqin ifodasini topgan. O'zbek millatiga mansub qizlarga qo'yiladigan Oltin, (Oltinoy), Kumush (Kumushoy, Kumushxon), Gavhar (Gavharjon, Gavharoy) Marjon (Marjona) kabi ismlar qozoq qizlariga ham qo'yiladi: Алтын (Алтынай), Күмис (Күмисай), Гаухар (Гаухаржан), Маржан. Qozoqcha Жибек (Ipak) ismining fonetik o'zgargan shakli esa turklarda faol qo'llanadi: Ipek. Qozoqlar uzoq kutilgan qiz farzandlariga Асель (Asal), Меиз (Kishmish), Күлпынай (Qulupnay) kabi ismlarni qo'yadilar. Bundan qozoqlar uchun eng tansiq narsalar nima ekanligi oydinlashadi. Bizda esa bu o'rinda Shakarjon (Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida), Olmajon kabi ismlar qo'llaniladi. O'zbek millatiga mansub insonlar bir nechta qizdan keyin tug'ilgan qiz farzandlariga O'g'iloy, O'g'iljon, Ulbo'lsin, Umida kabi ismlarni qo'ysalar, qozoqlar bu o'rinda Улболсын, Улжалгас, Улжан, Улбобек, Бүрүл, Кыздыгой ismlaridan foydalanadilar. Har ikki xalq uchun Oy, Kun, yulduzlar, umuman, osmon jismlari, tabiat hodisalari muqaddas va muhim ahamiyatga egadir: Күнсулу, Айсулу, Айман, Айгул, Шолпан, Венера, Жулдыз, Боранбай, Туманбай, Каржау, Танатар, Жанбырбай. Kuntug'mish, Kuntug'di, Oyto'ldi, Oygul, Oychechak, Oyxon, Oybibi, Cho'lpon, Zuhra, Yulduz, Tumanboy, Bo'ron, Bo'ronbek, Bo'ronboy. Har ikki xalqning asosiy e'tiqod qiladigan

dini Islomdir: Оразбек, Оразкул, Айтбай, Айткуль, Жумабай, Жумакуль. О‘rozbek, О‘rozgul, Hayitboy, Hayitgul, Hayitjon, Jumaboy, Jumagul.

Antroponimika millatning diniy e‘tiqodidan xabar berishi ham ayni haqiqatdir. Masalan, o‘zbek antroponimikasiga Xudoyberdi, Tangriberdi, Xudoyor, Xudoyazar, Ollonazar, Olloyor, Qudratilla, Rahmon, G‘ofur, Rauf, Qodir, Rahim, Salom, Aziz, Jabbor, Xoliq, Karim kabi ismlar Islom dini bilan birgalikda kirib kelgan. Bungacha O‘g‘uz, Qayumars, Jamshid, Zol, Kaykubod, Kaykovus, Rustam kabi ismlar faol qo‘llangan. O‘zbeklar, umuman, turkiy xalqlar so‘zning sehri kuchi borligiga qadimdan ishonib kelganlar, bu ishonch quyidagi ismlarda o‘zining yorqin isbotini topadi: Ortiqboy, Ziyodulla, Nishonboy, Xolboy, Xolniso, Norgul, Norbek, To‘xta, O‘lmas, Tursun, Temir, Toshboy, Toshtemir, Jontemir, Qoriq, Qo‘shboy, Qo‘shoq, Qoraboy, Sariboy, Ochildi, Ochilbek, Bozor. Yana ayrim bir ismlar borki, ularda millatning olis tarixi, uzoq o‘tmishdagi turmush tarzi haqidagi qimmatli ma‘lumotlar yashiringan. Masalan, Haydar ismi bir vaqtlar o‘zbek millatiga mansub kishilar taqvimida mavjud bo‘lgan “Mol aydar” (shanba kuni sotish uchun bozorga mol haydalgan kun) kunida tug‘ilgan bolalarga qo‘yilgan.

XULOSA

Shunday qilib, antroponimiya tildagi har qanday millatning madaniyati, dunyoqarashi, tarixi haqida juda ko‘plab qimmatli ma‘lumotlarni taqdim eta oladigan qiziqarli qatlamdir. Bundan tashqari til va madaniyat tushunchalarining o‘zaro bog‘liq ekanligini til o‘rganish jarayonlari orqali taqdiq etganimizda ham e‘tiborga loyiq ma‘lumotlarga ega bo‘lamiz. Arab tilini o‘rganayotgan insonlarda, Islom madaniyatga bo‘lgan qiziqishning ortib borishi sinchkovlik bilan kuzatishni talab qiladigan muhim hodisadir. Bundan tashqari ingliz tilini o‘rganayotgan yoshlar madaniyatida, “yevropacha” maneralar (haddan ortiq jur‘atlik, biroz betgachoparlik, sovuqqonlik, erkinlik, o‘z shaxsiyatiga bo‘lgan hurmat (ba‘zan me‘yoridan ortiq, egoizmga yaqin)ning paydo bo‘lishini ham kuzatishimiz mumkin. Biz bir tilni o‘rganar ekanmiz, o‘sha tilda gaplashuvchilarning madaniyatini ham beixtiyor o‘rganib, qabul qilib boramiz.

Til va madaniyat tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi bizni hushyorroq bo‘lishga chorlab qoladi. Hozirda til o‘rganish zamon talabi hisoblanib, yoshlarimiz asosan, shu ish bilan mashg‘ul bo‘lib qolganlar. Bunday vaziyatda davlatimiz o‘zbek tiliga bo‘lgan e‘tiborni yanada kuchaytirish kerak, deb o‘ylayman. Agar tilimizni, uning sofligini yo‘qotib qo‘ysak, do‘ppimiz-u, choponimizni, adras-u atlaslarimizni, hayomiz-u, ota-onaga bo‘lgan hurmatimizni, e‘tiqodimizni, bir so‘z bilan aytganda o‘zligimizni ham yo‘qotib qo‘yishimiz hech gap emas.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Бегматов Э.А., Ўзбек тили антропонимикаси. Тошкент: Фан, 2013.
- 2.Irisqulov M.T., Tilshunoslikka kirish. Toshkent: "Yangi asr avlodi" NMM, 2010.
- 3."Категория:Казахские имена по алфавиту — Викиновости"
https://ru.m.wikinews.org/wiki/%D0%9A%D0%B0%D1%82%D0%B5%D0%B3%D0%BE%D1%80%D0%B8%D1%8F:%D0%9A%D0%B0%D0%B7%D0%B0%D1%85%D1%81%D0%BA%D0%B8%D0%B5_%D0%B8%D0%BC%D0%B5%D0%BD%D0%B0_%D0%BF%D0%BE_%D0%B0%D0%BB%D1%84%D0%B0%D0%B2%D0%B8%D1%82%D1%83
4. Sh. Usmanova, N.Bekmuhamedova, G.Iskandarova Sotsiolingvistika. T.2014.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Т. 2007. 3-жилд.